O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA JOYLASHGAN MAVJUD AVTOYO‘L KO‘PRIKLARINING ORALIQ QURILMALARINI YUK KO‘TARISH QOBILIYATI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI O‘RGANISH

Amonov Yodgorjon Azim o‘g‘li
O‘zyo‘lko‘prik klasteri DM 1- toifali muhandisi

Qabul qilindi: 02.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 03.11.2025
Tasdiqlandi: 04.11.2025
Kalit so‘zlar:
yuk ko‘taruvchanlik, konstruksiya, oraliq qurilma, vaqtinchalik yuklar.

Annotatsiya. Temirbeton konstruksiyalarning yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatini kamayishiga olib keluvchi nuqsonlarni to‘planib borish muammosi – ularning ekspluatatsiya muddatlarini kamayishi va sharoitlarini yomonlashishi, loyihalashda yo‘l quyilgan xatolar, armaturaning korroziyalanishi,yoriqlar paydo bo‘lishi jiddiy muammodir.Mavjud ko‘priklarning aksariyat qismining xizmat muddatlari allaqachon tugab bo‘lgan va yillar o‘tgan sari og‘ir vazndagi yuk mashinalarining harakat jadalligi oshib bormoqda.Shu jihatdan mavjud ko‘priklarning yuk ko‘tarish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Keywords:
load-bearing capacity, design, intermediate device, live loads.

Abstract. The problem of the accumulation of defects leading to a decrease in the load- bearing capacity of reinforced concrete structures — the reduction of their service life and deterioration of their conditions, mistakes made in the design, corrosion of reinforcement, and the appearance of cracks is a serious problem. Most of the existing bridges are out of service. the terms of which have already expired and the speed of heavy trucks is increasing over the years. In this regard, it is an urgent issue to study the problems related to load-bearing of the existing bridges.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning amalga oshirayotgan tashabbuslari natijasida Respublikamizning import va eksport hajmlari sezilarli darajada oshib bormoqda bu esa o‘z navbatida og‘ir vazndagi yuk transport vositlarining harakat jadalligi oshishini anglatadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2023-yilning 29-iyul kunida hisobotiga ko‘ra Respublikamiz hududidagi mavjudavtoyo‘l ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarining umumiy soni 14863 tani tashkil etadi. Ushbu inshootlar

vizual ko‘rikdan o‘tkazilganda, ularning 41%, ya’ni 5,5 mingdan ziyod inshootlar ta’mirtalab ahvolda ekanligi qayd etilgan[1].



1.1-rasm. Respublikamizda mavjud avtoyo‘l ko‘prik inshootlarining ekspluatatsion holati

Ushbu inshootlardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tasarrufida jami 7237 ta inshoot bo‘lib, shundan 1738 tasi (24%) ta’mirtalab ahvolda. Suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufida jami 1247 ta va ularning 390 tasi (31%) ta’mirtalab ahvolda. Mahalliy hokimliklar tasarrufidagi 6191 ta inshootdan 3326 tasi (54%) va xo‘jalik avtomobil yo‘llarida joylashgan 188ta ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning 96 tasi (51%) ta’mirtalab ahvolda (1.2-rasm) [1].



1.2-rasm. Respublikamizdagi mavjud ko‘prik inshootlarning idoralararo bo‘linishi

Mamlakatimizda ekspluatatsiyadagi ko‘priklarning ayrimlarini yoshi 100 yildan oshgan. Qariyb 55-60% esa o‘tgan asrning 60-80-yillarda qurilib ekspluatatsiyaga topshirilgan (1.3- rasm).